

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IQTISODIY PROTSESSUAL KODEKSI

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

1-modda. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik buyruqqa, da'vo ishini yuritishga oid va alohida toifadagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(1-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2-modda. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalari

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

iqtisodiyot sohasida qonuniylikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish;

qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish.

3-modda. Iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqi va murojaatning shakli

Har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga (sudga) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sudga boshqa shaxslar ham murojaat qilishga haqli.

(3-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Sudga murojaat qilish:

fuqarolik huquqiy munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha — da'vo arizasi shaklida;

buyruq tartibida ish yuritish, alohida toifadagi ishlar bo'yicha hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda — ariza shaklida;

Oldingi tahrirga qarang.

apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlariga murojaat etilganda, shuningdek ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi.

(3-modda to'rtinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

4-modda. Iqtisodiy ish

Iqtisodiy ish ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan hujjatlar, ishni ko'rish jarayonida sud tomonidan

talab qilib olingan hujjatlar, shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakllantiriladi.

Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilishi mumkin.

Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari o'z elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan hujjatlarni elektron shaklda sudga taqdim etishga haqli. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan yozma hujjatlar ishga elektron shaklda qo'shib qo'yiladi, shundan so'ng yozma hujjatlar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Iqtisodiy ish elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, sud hujjatlari sudyaning (sudyalarning) elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, sud majlislarining hamda alohida protsessual harakatlarning bayonnomalari esa raislik qiluvchining va sud majlisi kotibining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Elektron shakldagi iqtisodiy ishni boshqa sudga yoki boshqa organga o'tkazish telekommunikatsiya kanallari orqali amalga oshiriladi.

Elektron shaklda shakllantirilgan iqtisodiy ishning qog'ozdagi ko'chirma nusxasi bo'lishi mumkin.

5-modda. Sud hujjatlari

Sud hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qiladi.

Birinchi instansiya sudida ishni mazmunan ko'rish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Apellatsiya va kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'rish natijalari bo'yicha appellatsiya va kassatsiya instansiyalari sudlari qaror qabul qiladi.

(5-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(5-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik bilan sudlarning vakolatiga berilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish natijalari bo'yicha qaror qabul qilinadi.

(5-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Kreditorning so'zsiz talablariga doir arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud tomonidan sud buyrug'i chiqariladi.

Ish mazmunan hal etilmasdan qabul qilinadigan sud hujjatlari ajrimlar shaklida chiqariladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Sud hujjatlari axborot tizimidan foydalangan holda elektron hujjat tarzida shakllantirilishi mumkin.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-607-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son)

2-bob. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish prinsiplari

6-modda. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

Iqtisodiy ishlar bo'yicha odil sudlov ushbu Kodeksda belgilangan qoidalar bo'yicha faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

7-modda. Qonun va sud oldida tenglik

Sudda nizolarni hal qilish yuridik shaxslarning mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligidan, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa jinsi, irqi, millati, tili, dini,

ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan, shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

8-modda. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi

Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalar mustaqilligining kafolatlari qonun bilan belgilanadi.

9-modda. Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

10-modda. Sud ishlari yuritiladigan til

Iqtisodiy sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi.

Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan sud protsessi ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish hamda sudda o'z ona tilida yoki erkin tanlangan muloqot tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud muhokamasi jarayonida qabul qilinadigan sud hujjatlari sud majlisi qaysi tilda o'tkazilgan bo'lsa, o'sha tilda tuziladi.

11-modda. Sud muhokamasining oshkoraligi

Iqtisodiy sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi.

Davlat sirini, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yiladi. Ishni yopiq sud majlisida videokonferensaloqa rejimida eshitishga yo'l qo'yilmaydi, bunday majlisning audio- va videoyozuvlari amalga oshirilmaydi.

Eshitish yopiq sud majlisida o'tkazilgan taqdirda ishni elektron shaklda shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari sudning rasmiy veb-saytida taraflarning roziligi bilan yoki shaxsi ko'rsatilmagan tarzda e'lon qilinadi, bundan sudning yopiq majlisida qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

12-modda. Sud muhokamasining bevositaligi

Sud ishni muhokama qilishda ish bo'yicha barcha dalillarni bevosita tekshirishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

13-modda. Ishlarni qonunchilik asosida hal qilish

(13-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Sud ishlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qiladi.

(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud ishni ko'rishda davlat organining yoki boshqa organning hujjati qonunga muvofiq emasligini, shu jumladan ushbu hujjat vakolat doirasidan chetga chiqilgan holda qabul qilinganligini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi.

Nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llaydi, bunday normalar ham mavjud bo'lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmuniga tayanib hal qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar o'rtasidagi nizolar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi.

(13-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud O'zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatlarning huquq normalarini qo'llaydi.

14-modda. Chet davlat huquqi normalarini qo'llash

Chet davlat huquqi normalarini qo'llashda sud ushbu normalarning mazmunini ularning tegishli chet davlatda sharhlanishiga va amalda qo'llanilishiga muvofiq holda aniqlaydi.

Chet davlat huquqi normalari mazmunini aniqlash maqsadida sud ko'maklashishni va tushuntirib berishni so'rab, O'zbekiston Respublikasining hamda chet davlatlarning vakolatli organlariga yoki tashkilotlariga belgilangan tartibda murojaat qilishi yoxud ekspertlarni jalb etishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar talablariga yoki e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan chet davlat huquqi normalari mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi va ushbu normalarning mazmunini aniqlashda iqtisodiy sudga boshqacha tarzda ko'maklashishi mumkin.

Agar ko'rilgan choralarga qaramay, chet davlat huquqi normalarining mazmuni aniqlanmasa, iqtisodiy sud O'zbekiston Respublikasining tegishli huquq normalarini qo'llaydi.

15-modda. Sud hujjatlarining majburiyligi

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa organlar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

Sud hujjatlarini bajarmaslik ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

3-bob. Sudning tarkibi

16-modda. Ishlarning yakka tartibda va hay'atda ko'rilishi

Birinchi instansiya bo'yicha ishlar barcha sudlarda sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ishlarni apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish uch nafar sudyadan iborat tarkibda hay'atda amalga oshiriladi.

(16-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish besh nafar sudyadan iborat tarkibda hay'atda amalga oshiriladi.

(16-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Ish hay'atda ko'rilayotganda sudyalardan biri sud majlisida raislik qiladi.

Ishni ko'rishda barcha sudyalar teng huquqlardan foydalanadi.

Ushbu Kodeksga binoan sudyaga ishni yakka tartibda ko'rish va ayrim masalalarni hal qilish huquqi berilgan taqdirda, sudya sud nomidan ish ko'radi.

17-modda. Sud tarkibini shakllantirish

Oldingi tahrirga qarang.

Muayyan ishni ko'rish uchun sud tarkibi sudyalarning ish hajmi va ixtisoslashuvi hisobga olingan holda, sud tarkibini shakllantirishga sud muhokamasi natijasidan manfaatdor bo'lgan shaxslarning ta'sir ko'rsatishi istisno etiladigan tartibda, avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalangan holda shakllantiriladi.

(17-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-607-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son)

Bir sudya yoki sud tarkibi tomonidan ko'rilishi boshlangan ish aynan shu sudya yoki sud tarkibi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim.

Sudya yoki sudyalardan biri:

sudya ushbu Kodeksda belgilangan tartibda o'zini o'zi rad qilgan yoki sudyani rad qilish haqida ariza berilgan va bu qanoatlantirilgan taqdirda;

sudya yo'qligi sababli ishni ko'rish imkoni bo'lmagan taqdirda almashtirilishi mumkin.

Sudya almashtirilganidan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

18-modda. Masalalarni sudyalar hay'ati tarkibi tomonidan hal qilish tartibi

Sud tomonidan ish hay'at tarkibida ko'rilayotganda yuzaga keladigan masalalar sudyalar tomonidan ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Sudyalardan birortasi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Majlisda raislik qiluvchi sudya hammadan keyin ovoz beradi.

Ko'pchilikning fikriga qo'shilmagan sudya sud hujjatiga imzo qo'yishi shart va u o'zining alohida fikrini yozma shaklda bayon qilishga haqli, alohida fikr muhrlangan konvertda ishga qo'shib qo'yiladi, lekin e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi.

Yuqori instansiya sudi sudyaning alohida fikri bilan tanishishga haqli.

19-modda. Ishni ko'rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi

Oldingi tahrirga qarang.

Ishni birinchi instansiya sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya, agar sudning hal qiluv qarori apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan bekor qilingan bo'lsa, shu ishni birinchi instansiya sudida yangidan ko'rishda ishtirok eta olmaydi, bundan yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni ko'rish hollari mustasno.

Ishni birinchi instansiya sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Ishni apellatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya yoki apellatsiya instansiyasi sudida yoxud ushbu Kodeksning 305¹-moddasiga muvofiq mazkur ishni kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

(19-moddaning birinchi — to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(19-moddaning beshinchi va oltinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-663-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son)

4-bob. Sudyani va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini rad qilish

20-modda. Sudyani rad qilish

Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

1) mazkur ish ilgari ko'rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga ushbu Kodeks talablariga muvofiq yo'l qo'yilmasa;